Annotatsiya. Mazkur maqolada to'qimachilik sohasini boshqarish, zamonaviy boshqaruv yondashuvlari, tarmoqlarni rivojlantirish va ta'minlash, iqtisodiyotni texnik-iqtisodiy modernizatsiyalash, to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, eksport salohiyati va investitsiyalarning samaradorligi, strategik boshqaruv va rejalashtirish, sanoat jozibadorligi, raqobat ustunligi, moliyaviy quvvat, barqaror rivojlanish darajasi, tashqi strategik raqobat hamda ichki strategik raqobatda ustunlik, rivojlanish turlarini tavsiflovchi hudud, barqaror rivojlanishning umumiy integral ko'rsatkichi qiymati ilmiy va nazariy jihatdan yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: to'qimachilik sanoati, ichki va tashqi omillar, ishlab chiqarish quvvatlari, strategik pozitsiya, strategiya g'oyasi, moliyaviy barqarorlik, yangi imkoniyatlar tabaqalanishi, dinamik raqobat, ichki menejment tizimi.

Abstract. This article describes the effective and strategic management and planning of the textile sector, modern management approaches, development and supply of industries, technical and economic modernization of the economy, production of textile products, export potential and investments, industrial attractiveness, competitive advantage, financial strength, level of sustainable development, dominance in external and internal strategic competition, types of development, and the value of the total integral indicator of sustainable development from a scientific and theoretical perspective.

Key words: textile industry, internal and external factors, production capacity, strategic position, strategy idea, financial stability, new opportunities stratification, dynamic competition, internal management system.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы управления текстильной отраслью, современные подходы к управлению, развитие и обеспечение отраслей, технико-экономическая модернизация экономики, производство текстильной продукции, эффективное управление и планирование экспортного потенциала и инвестиций, промышленная привлекательность, конкурентное преимущество, финансовая мощь, уровень устойчивого развития, превосходство во внешней и внутренней стратегической конкуренции, виды развития и территория, описывающая их, значение общего интегрального показателя устойчивого развития освещается с научной и теоретической точек зрения.

Ключевые слова: текстильная промышленность, внутренние и внешние факторы, производственные мощности, стратегическое положение, идея стратегии, финансовая стабильность, новые возможности стратификации, динамичная конкуренция, внутренняя система управления.

KIRISH

To'qimachilik sanoati dunyo miqyosida eng qadimgi va eng yirik ishlab chiqarish tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ushbu soha nafaqat insonning asosiy ehtiyojlaridan biri — kiyim-kechak bilan ta'minlashda, balki mamlakatlar iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida ham muhim o'rin tutadi. Jahon iqtisodiyotining jadal rivojlanishi, mehnat bozoridagi tarkibiy o'zgarishlar, iste'molchilar talabining ortishi hamda yangi texnologiyalarning keng joriy etilishi to'qimachilik sohasining chuqur transformatsiyasiga olib kelmoqda.

Ayniqsa, ishchi kuchi nisbatan arzon bo'lgan rivojlanayotgan davlatlar uchun to'qimachilik sanoati eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish, yangi ish o'rinlarini yaratish va milliy valyuta tushumlarini ko'paytirishning muhim manbai sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

To'qimachilik sohasi paxta yetishtirishdan boshlab, tayyor kiyim-kechak mahsulotlarini ishlab chiqarishgacha bo'lgan uzluksiz ishlab chiqarish zanjiriga ega bo'lib, qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlari bilan chambarchas bog'liqdir. Shu jihatdan u iqtisodiyotning ko'plab sohalariga ijobiy ta'sir ko'rsata oladigan, murakkab va strategik ahamiyatga ega tarmoq sanaladi.

O'zbekistonda to'qimachilik sanoati milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridan biri sifatida jadal rivojlanmoqda. So'nggi yillarda ushbu yo'nalishda keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda: zamonaviy



texnologiyalar joriy etilmoqda, ishlab chiqarish jarayonlari raqamlashtirilmoqda hamda eksport salohiyati bosqichma-bosqich oshirilmoqda.

Mazkur maqolada to'qimachilik sanoatining zamonaviy rivojlanish tendensiyalari, iqtisodiy ahamiyati, tarmoq korxonalarini boshqarish va rejalashtirish mexanizmlari, shuningdek, sohani yanada takomillashtirish istiqbollari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

To'qimachilik sanoati korxonalarida boshqaruv tizimini takomillashtirish masalasi nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, balki raqobatbardosh iqtisodiyot qurishda muhim omil sifatida qaraladi. Zamonaviy boshqaruv yondashuvlari ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi, inson kapitalini rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va resurslardan oqilona foydalanish bilan chambarchas bog'liq.

Boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish bo'yicha ilk konseptual yondashuvlar M. Porterning "The Competitive Advantage of Nations" (1990) asarida iqtisodiyot tarmoqlarida, jumladan, to'qimachilikda raqobat ustunligini aniqlovchi omillar tizimi orqali izohlanadi. Porter modeliga ko'ra, sanoat korxonalarida samarali boshqaruv ishlab chiqarish zanjirining barcha bosqichlarida integratsiyani talab qiladi.

P. Drucker (1973) esa "Management: Tasks, Responsibilities, Practices" asarida korxonalarni strategik boshqarish tizimini tashkil etishning muhim jihatlarini yoritgan. Unga ko'ra, sanoat korxonalarida menejment jarayoni faqat ma'muriy nazorat emas, balki innovatsion qarorlar va inson resurslarini samarali boshqarish orqali natijadorlikni oshirishdir.

Bundan tashqari, J. Stoner va E. Freeman (2018) o'zlarining "Management" asarida ishlab chiqarish korxonalarida boshqaruv tizimi samaradorligini aniqlashda tashkiliy tuzilma, kommunikatsiya va qaror qabul qilish jarayonlari muhim rol o'ynashini ta'kidlashadi. Shu bilan birga, xorijiy amaliyotda "lean management" (samarali boshqaruv), "total quality management" (umumiy sifat menejmenti) va "supply chain management" (ta'minot zanjiri boshqaruvi) konsepsiyalari keng qo'llanilmoqda (Ohno, 1988; Womack & Jones, 1996).

O'zbekiston sharoitida to'qimachilik sanoati boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish masalalari bo'yicha ko'plab iqtisodchi olimlar tadqiqot olib borgan. Xususan, M. I. Yuldashev (2020) "Sanoat korxonalarini raqobatbardosh boshqaruv tizimiga o'tkazishning strategik yo'nalishlari" nomli ishida mahalliy sanoat tarmoqlarida boshqaruv mexanizmlarini raqamli texnologiyalar asosida yangilash zarurligini ko'rsatadi. Unga ko'ra, boshqaruv tizimini takomillashtirish ishlab chiqarish samaradorligi va eksport salohiyatini oshiruvchi asosiy vositadir.

Sh. S. Maxsudov (2023) o'zining "To'qimachilik sanoati korxonalarida investitsion jarayonlarga ta'sir etuvchi omillar" maqolasida boshqaruv tizimini innovatsion loyihalarga yo'naltirish, risklarni minimallashtirish va xalqaro standartlarga mos sertifikatlashtirishni muhim yo'nalishlar sifatida belgilaydi.

G. Sh. Xankeldiyeva (2019) esa xizmatlar sektoridagi boshqaruvni takomillashtirish tajribalarini o'rganib, to'qimachilik sohasiga o'xshash tarmoqlarda menejment sifatining investitsiya oqimlariga bevosita ta'sirini tahlil qilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Sanoat korxonalarini, xususan, to'qimachilik sohasini boshqarishga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar mavjud bo'lishiga qaramay, to'qimachilik korxonalarining o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirilgan zamonaviy boshqaruv yondashuvlari va operatsion mexanizmlari hozirgi ilmiy adabiyotlarda yetarli darajada chuqur o'rganilmagan.

Ushbu tadqiqotda O'zbekistonda to'qimachilik sanoatini boshqarish jarayonining hozirgi holati va rivojlanish salohiyatini tahlil qilish maqsadida amaliy tadqiqot uslublari qo'llanilgan. Asosiy uslubiy yondashuvlar qatoriga tizimli tahlil, maqsadga yo'naltirilgan rejalashtirish hamda vaziyatli tahlil (situatsion analiz) kiradi. Bundan tashqari, SPASE-tahlil (Strategik Pozitsiya va Amalga oshirish Muhiti tahlili) to'qimachilik sanoati korxonalarini faoliyatiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni baholashda strategik diagnostika vositasi sifatida qo'llanilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi

To'qimachilik sanoati korxonalarini boshqarish masalalari bo'yicha xorijiy olimlarning ilmiy yondashuvlari alohida e'tiborga loyiqdir. Jumladan, Maykl Porter raqobatbardoshlikning asosi tarmoq ichidagi klaster tizimi orqali ishlab chiqarish integratsiyasini shakllantirishda namoyon bo'lishini ta'kidlagan. U to'qimachilik sanoatini boshqarishda klaster modelini qo'llash, korxonalarni kooperatsiya asosida birlashtirish hamda innovatsion muhit yaratish zarurligini ilmiy asoslab bergan [1].

Shuningdek, Piter Druker samarali boshqaruv tizimi inson kapitali, innovatsiyalar va bozor ehtiyojlariga moslashuvga tayanishi lozimligini ilgari surgan. U boshqaruv qarorlarini qabul qilishda strategik fikrlash, innovatsion menejment va inson resurslarini rivojlantirishning o'zni muhimligini ta'kidlagan.



Mazkur ilmiy yondashuvlar asosida o'rganilgan materiallar to'qimachilik sanoatida boshqaruv samaradorligini oshirish uchun klaster yondashuvi, innovatsion menejment, inson kapitaliga investitsiya kiritish va raqobat strategiyalarini shakllantirish kabi asosiy ilmiy yo'nalishlar ustuvor ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatadi [2].

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston to'qimachilik sanoati iqtisodiyotning eng muhim va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri sifatida eksport salohiyatini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda sanoatning hududiy diversifikatsiyasini ta'minlashda katta ahamiyat kasb etmoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda tarmoq korxonalarining faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida soliq imtiyozlari, bojxona preferensiyalari, eksportni rag'batlantirish dasturlari va xorijiy investitsiyalar uchun qulay muhit yaratilmoqda. Natijada, to'qimachilik mahsulotlarining eksport hajmi yildan-yilga oshib bormoqda, xususan, 2024-yilda bu ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan qariyb ikki baravar ko'paygan. Shuningdek, "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tashabbusi bilan ishlab chiqarish zanjirining barcha bosqichlarida raqamli texnologiyalar joriy etilib, mahsulot sifati va raqobatbardoshligi sezilarli darajada yaxshilandi.

O'zbekiston to'qimachilik sanoati barcha tarmoqlarini rivojlantirish va ta'minlash uchun boy xomashyo bazasiga ega. Ushbu resurslar tarkibiga paxta, jun, qorako'l, neft, gaz va boshqa muhim tabiiy boyliklar kiradi. Shuningdek, iqtisodiyotning jadal sur'atlar bilan rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tabiiy-iqlimiy, hududiy va mehnat resurslari kabi qulay shart-sharoitlar ham mavjud.

Tarmoqni 2019–2030-yillarda rivojlantirish strategiyasida 2025-yilga borib, respublikamizda to'qimachilik sohasida ip-kalavani qayta ishlash darajasini 100 foizga yetkazish hamda yuqori sifatli matolarga bo'lgan talabni qondirish maqsadida 400 ming tonna sun'iy va aralash tolalar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish belgilangan.¹

Iqtisodiyotni texnik va iqtisodiy jihatdan modernizatsiyalash, sanoatning ustuvor tarmoqlarini yanada rivojlantirish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali ichki va tashqi bozorlar talabiga javob beradigan tovar hamda mahsulotlar hajmini ko'paytirish ko'zda tutilgan [3]. Shu bois, mamlakatimizda to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish, sohani zamonaviy texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish va xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda (1-jadval).

1-jadval. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, 2019–2024-yillar (mlrd so'mda)²

№	Ko'rsatkich nomi	2019	2020	2021	2022	2023	2024
1	Sanoat mahsuloti (jami)	322535,8	368740,2	456056,1	553265	658991,7	880198,5
Shu jumladan:							
2	Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	1743,8	1951,2	2089,4	2888,9	3200,2	4516,4
3	To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	29946,6	36713,9	52372,3	62850,7	71509,8	89489
4	Kiyim ishlab chiqarish	9165,8	10402,4	13592,8	17264,8	23087,8	31906,8
5	Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	1588,8	1616,9	2083,9	2220,6	2795,7	4137,1

Ma'lumotlar tahlilidan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2019–2024-yillar davomida izchil o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Xususan, umumiy sanoat mahsulotlari hajmi 2019-yilda 322,5 trln so'mdan 2024-yilda 880,2 trln so'mga yetib, so'nggi besh yil ichida qariyb 2,7 baravar o'sishni qayd etgan. Bu esa mamlakatda sanoat ishlab chiqarishining barqaror o'sish sur'atlariga ega ekanini ko'rsatadi.

Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi ham sezilarli darajada ortgan. 2019-yilda 1,74 trln so'mni tashkil etgan ushbu ko'rsatkich 2024-yilda 4,52 trln so'mga yetgan, ya'ni o'sish 2,6 baravarni tashkil etgan. Bu holat sohada iste'mol talabi ortib borayotganini, ishlab chiqarish quvvatlarining kengaygani va mahsulot diversifikatsiyasi kuchayganini bildiradi.

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 2019-yilda 29,95 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 89,49 trln so'mga yetgan. Natijada, ushbu sohada ishlab chiqarish hajmi 3 baravar o'sdi. To'qimachilik sanoati eng yuqori o'sish sur'atlarini qayd etgan tarmoqlardan biri bo'lib, bu O'zbekistonda ushbu sohaga qaratilgan davlat e'tibori, eksport salohiyatining ortishi va investitsiyalarning samarali yo'naltirilayotganidan dalolat beradi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

2 O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.



Kiyim ishlab chiqarish sohasida ham ijobiy natijalar kuzatilmoqda. 2019-yilda 9,17 trln so'mni tashkil etgan ushbu ko'rsatkich 2024-yilda 31,91 trln so'mga yetib, 3,5 baravar o'sishni namoyon etdi. Bu ichki va tashqi bozorlarda kiyim-kechak mahsulotlariga bo'lgan talabning ortgani hamda mahalliy ishlab chiqarish quvvatlarining kengaygani bilan izohlanadi.

Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi ham 2019-yilga nisbatan 2024-yilda 2,6 baravar o'sgan. Bu sohada ham rivojlanish mavjud bo'lib, hajmi nisbatan kichik bo'lishiga qaramay, uni modernizatsiya qilish va eksport ulushini kengaytirish imkoniyatlari katta.

Umuman olganda, barcha tarmoqlarda barqaror va izchil o'sish kuzatilmoqda. Ayniqsa, to'qimachilik va kiyim sanoati o'sish sur'ati bo'yicha yetakchi tarmoqlar sifatida ajralib turadi. Ushbu tahlil mamlakat sanoatining diversifikatsiyalanib borayotganini, qayta ishlash bosqichlarining chuqurlashganini hamda import o'rnini bosuvchi va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish yo'nalishlari ustuvorligini tasdiqlaydi.


To'qimachilik sanoati korxonalarini boshqarish va rivojlantirish jarayonida zamonaviy tahlil vositalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Xususan, SPACE-tahlil strategik boshqaruv va rejalashtirishda qo'llaniladigan samarali analitik usul bo'lib, u korxonaning biznes strategiyasini aniqlash va rivojlantirish g'oyasini shakllantirishga yordam beradi.

SPACE-tahlil ichki va tashqi muhitni baholaydi hamda korxona uchun mos strategiyani ishlab chiqish imkonini beradi. Tashqi muhit asosan ikki mezon orqali tavsiflanadi: atrof-muhit barqarorligi (ES) va sanoat jozibadorligi (IA). Atrof-muhit barqarorligiga texnologik o'zgarishlar, inflyatsiya darajasi, talabning o'zgaruvchanligi, raqobatbardosh mahsulotlarning narx diapazoni, talabning narx egiluvchanligi hamda o'rinbosar mahsulotlar bosimi kabi omillar ta'sir qiladi. Sanoat jozibadorligi esa o'sish salohiyati, foyda imkoniyati, moliyaviy barqarorlik, resurslardan foydalanish samaradorligi, tarmoqqa kirish murakkabligi, mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi va ishlab chiqaruvchilarning savdolashish qobiliyati orqali aniqlanadi. Ichki muhit ham ikki asosiy mezon bilan baholanadi: raqobat ustunligi (CA) va moliyaviy quvvat (FS). Raqobat ustunligiga bozor ulushi, mahsulot sifati, mahsulot hayot aylanish davri, innovatsion aylanish tezligi, mijozlarning sodiqligi hamda vertikal integratsiya darajasi ta'sir etadi. Moliyaviy quvvat esa investitsiyalar rentabelligi, likvidlik darajasi, qarz ulushi, mavjud kapital hajmi, pul oqimlari va inventar aylanmasi kabi ko'rsatkichlar bilan belgilanadi.

SPACE-tahlil (Strategic Position and Action Evaluation) — bu tashkilotning strategik pozitsiyasini baholash va unga mos harakat yo'nalishlarini aniqlashga xizmat qiluvchi tahliliy usul bo'lib, u korxonaning moliyaviy kuchi (Financial Strength – FS), raqobat ustunligi (Competitive Advantage – CA), sanoat jozibadorligi (Industry Attractiveness – IA) hamda atrof-muhit barqarorligi (Environmental Stability – ES) kabi to'rtta asosiy mezon asosida amalga oshiriladi.

SPACE-tahlili, odatda, tashkilotning bosh direktori va yuqori rahbariyat tomonidan qabul qilinadigan strategik qarorlar jarayonida qo'llaniladi. Ushbu usul tashkilotning ichki imkoniyatlari va tashqi muhitdagi o'zgarishlarni kompleks baholashga imkon beradi.

Baholash jarayoni quyidagicha tashkil etiladi: har bir mezon doirasidagi kichik omillar 0 dan 6 gacha bo'lgan ball tizimi asosida baholanadi (CA va ES mezonlari uchun baholash oraligi 0 dan –6 gacha etib belgilanadi). Har bir mezon bo'yicha yakuniy baho individual omillarning o'rtacha qiymati sifatida aniqlanadi. Ushbu o'rtacha qiymatlar SPACE matritsasining tegishli o'qlariga joylashtiriladi (1-rasm).



1-rasm. To'qimachilik sanoati korxonalarini rivojlantirish, boshqarish va rejalashtirish SPACE-tahlili.³

³ <https://en.wikipedia.org/wiki/Space>



Natijada hosil bo'lgan koordinata nuqtalari o'zaro birlashtiriladi va to'rtburchak shaklidagi figura hosil qiladi. Ushbu figura qaysi kvadrantda joylashgan bo'lsa, aynan o'sha kvadrantdagi strategik yo'nalish korxonaning eng maqbul biznes harakat alternativasi sifatida aniqlanadi.

Mazkur yondashuv tashkilotning ichki imkoniyatlari va tashqi muhit o'rtasidagi muvozanatni ta'minlab, strategik qarorlar samaradorligini oshirish hamda resurslardan oqilona foydalanishni rag'batlantiradi.

Ushbu tahlil natijalariga asoslanib, kompaniya uchun strategik raqobatbardosh joylashuvni aniqlash hamda mavjud strategik alternativalarini belgilash imkoniyati yaratiladi. Bu esa korxona faoliyatini yanada samarali boshqarish, resurslardan oqilona foydalanish va uzoq muddatli raqobat ustunligini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, to'qimachilik sanoati korxonalari boshqaruv samaradorligiga ta'sir etuvchi ayrim omillar mavjud bo'lib, ularning tahlili sohani yanada rivojlantirish choralari aniqlashga yordam beradi. Masalan, inflyatsiya darajasining yuqoriligi soliq stavkalarining oshishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois, investitsiya samaradorligini hisoblashda inflyatsiya omilini inobatga olish muhimdir. Bunda kelgusida olinadigan foydaning inflyatsion targetlash darajasida kamayib ketishining oldini olish zarur.

Hududiy sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini tahlil qilish, sanoatni modernizatsiya qilish strategiyalarini ishlab chiqish hamda korxonalar samaradorligini oshirish yo'nalishlarini belgilashda ushbu tahlil natijalaridan samarali foydalanish mumkin.

Shuningdek, to'qimachilik sanoati korxonalarining barqaror rivojlanishini tavsiflovchi umumiy integral koeffitsientlar qiymatlari tarmoqning iqtisodiy salohiyatini, moliyaviy barqarorligini va raqobatbardoshligini kompleks baholash imkonini beradi (2-jadval).

2-jadval. To'qimachilik sanoati korxonalarining barqaror rivojlanish darajalarini tavsiflovchi umumiy integral koeffitsientlarning qiymatlari.⁴

Daraja	Rivojlanish turlarini tavsiflovchi hudud	Barqarorlik darajasi nomlanishi	Barqaror rivojlanish umumiy integral ko'rsatkichi qiymati
1	Dinamik	Yuqori barqaror rivojlanish	$0,8 < U_{umumiy} \leq 1$
2	Dinamik	Normal barqaror rivojlanish	$0,6 < U_{umumiy} \leq 0,8$
	Statistik		
3	Statistik	Normal barqaror rivojlanish	$0,4 < U_{umumiy} \leq 0,6$
4	Kritik	Kritik barqaror rivojlanish	$0,3 < U_{umumiy} \leq 0,4$
5	Salbiy	Inqirozli barqaror rivojlanish	$U_{umumiy} \leq 0,3$

Ushbu uslubiyatni amaliy sinovdan o'tkazish maqsadida empirik asos sifatida Farg'ona viloyatining yetakchi to'qimachilik korxonalari tanlab olindi. Ular qatoriga "Posco International Textile" MCHJ, "Indorama Kokand Textile" AJ, "NARIMTEKS" MCHJ, "FERGANA-OSEANA" MCHJ hamda "RUSO'ZBEKTEKS" MCHJ xorijiy investitsiyali korxonalari kiradi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, mazkur to'qimachilik korxonalari barqaror rivojlanish darajasini tavsiflovchi umumiy integral koeffitsient qiymati 0,091–0,804 oralig'ida bo'lgan. Bu ko'rsatkich korxonalar o'rtasida barqarorlik darajasining turlicha ekanini, lekin umumiy holda rivojlanish dinamikasi ijobiy yo'nalishda ekanini anglatadi.

Tahlil jarayonida aniqlanishicha, to'qimachilik mahsulotlari bozorida muayyan ulushni egallash va uni barqaror ushlab turish uchun savdo hajmini oshirish strategik maqsadiga erishish zarur. Shu bois, tadqiqotda ishtirok etgan korxonalarga uchta asosiy tarmoq yo'nalishida fokuslashtirilgan o'sish strategiyasini amalga oshirish tavsiya etiladi. Bu yondashuv ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish va raqobat ustunligini mustahkamlash imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

To'qimachilik sanoati O'zbekiston iqtisodiyotining strategik va ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, so'nggi yillarda ushbu sohada sezilarli ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Tadqiqot natijalariga ko'ra, 2019–2024-yillar mobaynida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2,7 baravar oshgan. Ayniqsa, to'qimachilik hamda kiyim-kechak mahsulotlari ishlab chiqarish tarmoqlarida 3–3,5 baravar o'sish qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkichlar O'zbekistonning ishlab chiqarish, eksport salohiyati va sanoatni diversifikatsiyalash borasida erishgan yutuqlarini yaqqol ifodalaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mamlakatda ishlab chiqarishni raqamlashtirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda eksportga yo'naltirilgan mahsulotlarni ko'paytirish orqali sanoat tarmoqlarining raqobatbardoshligi izchil oshmoqda. SPACE-tahlil natijalariga ko'ra, sanoat korxonalari

⁴ Muallif ishlanmasi.



tashqi va ichki omillar ta'sirida qanday strategik yo'nalishlarni tanlashi zarurligi aniqlangan. Ayniqsa, atrof-muhit barqarorligi, sanoat jozibadorligi, moliyaviy quvvat va raqobat ustunligi kabi indikatorlar korxonalar strategik joylashuvi va rivojlanish modelini belgilashda muhim omil sifatida xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, to'qimachilik sanoatining barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun mamlakat, hudud va tarmoq darajasidagi rivojlanish ko'rsatkichlari statistik va dinamik shakllarda baholangan. Bu yondashuv sanoatni strategik rejalashtirishda muhim analitik vosita sifatida qo'llanishi mumkin. Tadqiqot davomida Farg'ona viloyatidagi yetakchi korxonalar misolida empirik tahlillar o'tkazilib, ularning barqarorlik darajalari aniqlangan hamda amaliy xulosalar shakllantirilgan. Tadqiqot natijalari asosida mamlakatimiz to'qimachilik sanoati korxonalarini boshqaruv tizimini yanada rivojlantirish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi: xom ashyo eksporti o'rniga yuqori qo'shimcha qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu nafaqat valyuta tushumlarini oshiradi, balki ichki bozor ta'minotini yaxshilaydi. Korxonalarda zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va sun'iy intellekt (AI) texnologiyalarini bosqichma-bosqich qo'llash orqali soha samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Sifatli ta'lim tizimini rivojlantirish va kasb-hunarga tayyorlov markazlari orqali malakali mutaxassislar tayyorlash ishlab chiqarish sifati hamda innovatsion yondashuvlarni yanada kuchaytiradi. Ilmiy-tadqiqot institutlari va sanoat korxonalari hamkorligini kuchaytirish, texnoparklar negizida startap loyihalarini moliyalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Marketing va logistika tizimlarini takomillashtirish orqali to'qimachilik mahsulotlarining eksport salohiyatini oshirish zarur. Tadqiqotda ishlab chiqilgan barqarorlikni baholash modeli asosida korxonalarni strategik rejalashtirish va ularni rivojlantirish yo'nalishlarini tizimli asosda yo'lga qo'yish lozim. Valyuta kursi tebranishlari, inflyatsiya va boshqa makroiqtisodiy omillar ta'sirini yumshatish maqsadida barqaror soliq va kredit siyosatini amalga oshirish tavsiya etiladi. Umuman olganda, to'qimachilik sanoatini modernizatsiya qilish, innovatsion boshqaruv yondashuvlarini tatbiq etish, inson kapitaliga sarmoya kiritish hamda xalqaro bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish soha istiqbolining muhim omillari hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Porter, M. E. (1990). The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press. — Milliy iqtisodiyotlarning raqobatbardoshligini ta'minlash omillarini tahlil qiluvchi fundamental ilmiy asar bo'lib, unda klaster yondashuvi asosida sanoat rivojlanishining nazariy va amaliy jihatlarini yoritilgan.
2. Drucker, P. F. (1973). Management: Tasks, Responsibilities, Practices. New York: Harper & Row. — Menejmentning zamonaviy nazariy asoslarini bayon etuvchi ushbu asarda inson kapitalining roli, innovatsion boshqaruv va strategik qarorlar qabul qilishning muhim jihatlarini tahlil qilingan.
3. Khankeldieva, G. Sh. (2019). Prospects for the Development of Investment Activity in the Tourism Services Sector: Problems and Solutions. Theoretical & Applied Science, (10), 160–163. — Turizm xizmatlari sektorida investitsion faollikni oshirish yo'nalishlari va ularning iqtisodiy samaradorligini baholash masalalariga bag'ishlangan ilmiy maqola.
4. Maxsudov, Sh. S. (2023-yil, 3-son). To'qimachilik sanoati korxonalarida investitsion jarayonlarga ta'sir etuvchi omillar. Biznes Ekspert jurnali. Toshkent. — B. 82. — Mazkur maqolada to'qimachilik korxonalaridagi investitsion jarayonlarga ta'sir etuvchi iqtisodiy omillar, ularning samaradorligini oshirish usullari hamda boshqaruv mexanizmlarining takomillashtirish yo'nalishlari tahlil etilgan.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
